



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING XAVFSIZLIGI VA GEPATIT KASALLIGI

Sherqo'ziyeva G.F

Yermatova S.G

Asenbayeva L.S

Toshpulatov B.M

Toshkent Davlat tibbiyot universiteti

Annatotsiya: *Gepatitlar orasida virusli gepati A 60-70% tashkil etadi. Kasallikning yuqish omillaridan biri bu ifloslangan oziq-ovqat mahsulotlari hisoblanadi. Kuzatuv mintaqasidagi jami kasallanganlar soni 43 ta (100%) bo'lib, ulardan aniqlangan yuqish omillarini 38 ta tashkil etadi. Bevosita 19 holatda gepatit kasalligini yuqish mexanizmda ifloslangan oziq-ovqat mahsulotlari ekanligi o'rnatildi.*

Kalit so'zlar: *aholi, gepatit, oziq ovqat mahsulotlari, fekal-oral mexanizm, kasallanish, gigiyena, profilaktika*

Dolzarlighi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyoda 325 millionga yaqin odam gepatit B virusi va kamida 200 million kishi gepatit C virusi bilan kasallanmoqda[5]. 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, har yili 500-700 ming kishi gepatit B infeksiyasi, 350 mingdan ortiq bemor gepatit C asoratlari tufayli vafot yetadi.

Butunjahon gepatit alyansining 2021-yil iyul ma'lumotlariga ko'ra, gepatit B va C virusi sababli har yili 1,4 million odam vafot etadi. Virusli gepatitlar — jigarni zararlovchi, o'tkir va surunkali shakllarda kechuvchi yuqumli kasalliklardir. A, B, C, D, E turlari mavjud bo'lib, jigar sirrozi va rakiga olib kelishi bilan dolzarb muammo hisoblanadi.

Asosiy muammolar — kasallikning yashirin kechishi, kech tashxislash, yuqori o'lim ko'rsatkichi, profilaktika (vaksinatsiya) va davolash choralarining qimmatligidir. Hozirgi davrda nafaqat bizning respublikamizda balkim ko'pgina boshqa davlatlarda ham virusli gepatit A kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi ancha yuqori darajada[2.3].

O'zbekistonda virusli gepatit A kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi bugungi kunda ham baland bo'lib, bu ko'rsatkich har 100 ming aholiga 2010-yilda – 100 dan ko'proq, ammo kasallanish ko'rsatkichi 1990-yillarga nisbatan 3,7 barobar kamaygan. Hozirgi kunda respublikamizda barcha virusli gepatitlarni oldini olishni takomillashtirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2018-yil 27-avgust № 542 sonli "O'zbekiston Respublikasida virusli gepatitlarning tashxisoti, davosi va profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i mavjud bo'lib uning asosida turli profilaktik chora-tadbirlar olib borilmoqda.



Prezidentimizning 2022-yil 16-maydagi “Ayrim dolzarb virusli infeksiyalar tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish to’g’risida”gi qarorida quyidagilar aholi orasida ayrim virusli infeksiyalarni o’z vaqtida profilaktika va diagnostika qilish, ularni davolash bo’yicha aholiga ko’rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni yanada takomillashtirish va kengaytirishning asosiy yo’nalishlari etib belgilangan[1].

Virusli gepatit A butun dunyoda eng keng tarqalgan, uchrash ko’lamiga ko’ra o’tkir respirator virusli infeksiyalar va o’tkir ichak yuqumli kasalliklaridan keyin uchinchi o’rinda turadi. Ma’lumotlariga ko’ra har yili 1,5 millionga yaqin odamlar virusli gepatit A bilan kasallanadi[4]. Virusli gepatit A bilan kasallanish eng ko’p 2 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalarga xosdir. Virusli gepatit A fekal-oral mexanizmi bilan kechadigan yuqumli kasallik bo’lib, ko’p holatlarda kasallik davriy, qisqa muddatli intoksikatsiya, asosan jigar zararlanishi bilan xarakterlanadi.

Virusli gepatit A boshqa jigar kasalliklari orasida yetakchi o’rinni egallaydi va barcha virusli gepatitlarning 65-75 foizini tashkil qiladi. Virusli gepatit A kasalligining tarqalishi Afrika va Janubiy Osiyoda eng yuqori ko’rsatkichlarda bo’lib, u 100 ming aholiga nisbatan 500-600 kishini tashkil etadi. Virusli gepatit A kasalligi barcha kasallanganlarda o’tkir shakllanmaydi, shuning uchun ro’yxatga olinganlar soni bu barcha kasallanganlarni sonini bildirmaydi. Virusli gepatit A kasalligida “Aysberg sindromi” kuzatiladi. Bunda kasallanganlarning 10-20 foizida kasallik belgilari yuzaga chiqadi, qolganlarida klinik belgilar yuzaga chiqmaydi yoki shamollash va boshqa belgilar bilan kechadi. Ko’pgina hollarda Virusli gepatit A infeksiyasi, viruslar bilan zararlangan oziq-ovqatlar yoki iflos suv orqali yuqadi. Bundan tashqari “iflos qo’llar” virusning yuqishida katta rol o’ynaydi. Ayniqsa bu suv, mevalar, rezavorlar (qulupnay, malina) ga termik ishlovdan o’tkazilmaydi va virus ularning yuzasida saqlanadi. Qulupnayni xlorli suv bilan yuvib tozalangandan so’ng, mikroskopik tekshirilganda ifloslangan najas moddalarining izlari qolgan. Xlorli konsentratsiya qulupnaydagi virusli gepatit A ni inaktivatsiya qilmagan bo’lsa, kontaminatsiyalangan qulupnayni muzlatish ham virusning o’limiga ta’sir ko’rsatmaydi.

Aniqlangan barcha virusli gepatitlarning 60 % dan ko’prog’ini o’tkir virusli gepatit A tashkil qiladi. Oxirgi yillarda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik o’zgarishlar natijasida virusli gepatit A kasalligining zamonaviy sharoitlarda tarqalishi turli epidemiologik omillar bilan bog’liq.

Tadqiqot usullari. Muammoning dolzarbligidan kelib chiqib biz aholi o’rtasida virusli gepatit A ning tarqalishini taxlil qildik va statistik usullardan foydalandik.

Olingan natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz aholi o’rtasida virusli gepatit A bilan kasallanish holatini taxlil qildik va quyidagi natijalarni oldik. Kuzatuv mintaqasidagi jami kasallanganlar soni 43 ta (100%) bo’lib, ulardan aniqlangan yuqish omillarini 38 ta tashkil etadi(1 jadval). Bundan ko’rinib turibdiki kasallikning aniqlanish darajasi yuqori.



1 jadval Aholining kasallanish holati

Nº	Kasallanganlar soni jami	Aniqlangan yuqish omillarini
1	43 (100%)	38 (88,3%)

Aniqlangan yuqish omillarining taxlilida esa eng asosiysi oziq-ovqatlar 19 ta holat (44,2%) va maishiy muloqat 19 ta holat(44,2%) orqali yuqqanligi aniqlandi. Kasallikning ichimlik suvi orqali yuqish holati 13 ta va ochiq suv havzalari orqali esa 11 ta holat ekanligi o'rnatildi.

Xulosa.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki ushbu kasallikning yuqishida ifloslangan va aholi salomatligi uchun xavfli bo'lgan oziq-ovqatlar asosiy omil hisoblanadi.

Kasallikning profilaktikasida ekologik toza va turli mikroorganizm viruslar bilan ifloslanmagan oziq-ovqatlar iste'mol qilish, hamda shaxsiy gigiyenaga rioya qilish muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing "Ayrim dolzarb virusli infeksiyalar tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori 2022 yil 16 maydagi

2. Abduvaliyeva, F. T., Azizova, F. L., Akromov, D. A., & Sherkuziyeva, G. F. (2022). APPROVAL AND ECOLOGICAL-HYGIENIC ASPECTS OF WATER SUPPLY TO POPULATION POINTS.

3. Musayeva, O. T., Sherkuziyeva, G. F., Ismoilova, U. B., & Ergasheva, Sh. K. Specific features of diffuse nontoxic goiter during pregnancy

4. Sherkuziyeva, G. F., Salomova, F. I., & Yuldasheva, F. U. (2023). Rezultati sanitarno-ximicheskix issledovaniy vodi.

5. Sherkuzieva, G. F., Turakhonova, F. M., & Mustanov, J. A. (2017). Results of laboratory research of the quality of drinking water.